



O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi tizimi (2020/2021- o'quv yili boshida)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ta'lif sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, bu sohada innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali o'rta maxsus ta'lifi tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 14- martdag'i "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2829-sonli qarori qabul qilindi.


O'rta-maxsus kasb-hunar ta'lif muassasalarining 2020/2021- o'quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda





O'zbekiston Respublikasida 2020/2021-o'quv yilida jami 41 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyat yuritgan. Ulardan, akademik litseylar soni 3 ta (4,9%) ni, kasb-hunari maktablar 16 ta (55,9%) ni, kollejlari soni 9 ta (14,7%) ni va texnikumlar soni 13 ta (24,5%) ni tashkil etgan.


Kasb-hunar maktablar 2020/2021- o'quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda




Jizzax viloyati bo'yicha 2020/2021-o'quv yili boshida 16 ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Baxmal, G'allaorol, Zarbdor va Sh.Rashidov tumanlarida (2 ta) va eng kam ko'rsatkich esa Arnasoy, Zomin, Zafarobod, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlariga (1 ta) to'g'ri keladi.

Kasb-hunar maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi

(2020/2021-o'quv yili boshiga)



2020/2021-o'quv yili boshida kasb-hunar maktablarida 3536 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, bu ko'satkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Sh.Rashidov tumanida - 542 kishi, Baxmal tumanida – 488 kishi, G'allaorol tumanida – 436 kishi va Jizzax shahrida - 320 kishiga to'g'ri kelgan.



**Kasb-hunar maktablari o'qituvchi xodimlarining
hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**



	Jami o'qituvchilar, (o'rindoshlarsiz) ming kishi	Bitta o'qituvchi- ga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni
Jizzax viloyati	315	11
Jizzax shahar	24	13
tumanlar:		
Arnasoy	44	3
Baxmal	50	10
G'allaorol	42	10
Sh.Rashidov	27	20
Do'stlik	-	-
Zomin	22	12
Zarbdor	29	9
Zafarobod	16	13
Mirzacho'l	21	13
Paxtakor	15	12
Forish	14	13
Yangiobod	11	17

2020/2021-o'quv yili boshiga kasb-hunar maktablarida jami o'qituvchilar soni 315 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan. Jizzax viloyatida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 11 nafar o'quvchi to'g'ri kelib, shulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Sh.Rashidov tumanida ya'ni, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 20 nafardan o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Arnasoy tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 3 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.



Jizzax viloyati bo'yicha akademik litseylarida 166 (o'rindoshlarsiz) nafar o'qituvchi faoliyat olib borayotgan bo'lib, bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.

Jizzax viloyatida akademik litseylar faoliyati (2020/2021- o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshiga Jizzax viloyati bo'yicha akademik litseylar soni 3 tani tashkil etgan bo'lib, barcha akademik litseylar Jizzax shahriga shahriga to'g'ri kelgan.

Akademik litseylarda ta'lif olayotgan o'quvchilarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi, kishi


(2020/2021- o'quv yili boshiga)

Jizzax viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshida akademik litseylarda jami 2157 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, jinsi bo'yicha taqsimlanganida umumiy songa nisbatan 32,5 % ni o'quvchi qizlar tashkil etgan.

2020- yilda Jizzax viloyatida 790 nafar o'quvchi akademik litseylarni tamomlagan. Bitirgan o'quvchilarni jinsi bo'yicha taqsimlanganida umumiy songa nisbatan 43,4 % ni o'quvchi qizlar tashkil etgan.



Kasb-hunar kolejlari 2020/2021- o'quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda





Jizzax viloyati bo'yicha 2020/2021-o'quv yili boshida 9 ta kolejlar mavjud bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumani va Jizzax shaharda (2 ta), eng kam ko'rsatkich esa Arnasoy, Zomin, Zafarobod, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlariga (1 ta) to'g'ri keladi.

Kasb-hunar kolejlarda ta'lim olayotgan o'quvchilarining hududlar kesimida taqsimlanishi (2020/2021-o'quv yili boshiga)


	Jizzax sh	Arnasoy	Baxmal	G'allaorol	Sh.Rashidov	Do'stlik	Zomin	Zarbodor	Zafarobod	Mirzacho'l	Paxtakor	Forish	Yangiobod
Jami o'quvchilar soni	374	61	600	450	-	30	250	-	-	-	316	-	-
Shu jumladan qizlar	154	37	585	396	-	2	103	-	-	-	308	-	-
Umumiy soniga nisbatan % da	41.2	60.7	97.5	88	-	6.7	41.2	-	-	-	97.5	-	-

**Kasb-hunar kollejlari o'qituvchi xodimlarining hududlar kesimida
taqsimlanishi, kishi
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**



2020/2021- o'quv yili boshiga kasb-hunar kolejlari jami o'qituvchilar soni 153 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan bo'lib bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'qituvchilarning yuqoriligi Baxmal tumanida - 36 nafar, Gallaorol tumanida – 34 nafar va Jizzax shahrida - 42 nafar o'qituvchiga to'g'ri kelgan.

Jizzax viloyati bo'yicha texnikumlarni 2020/2021- o'quv yilida hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda



Jizzax viloyati bo'yicha 2020/2021-o'quv yili boshida 13 ta texnikumlar mavjud bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shaharda, G'allaorol, Sh.Rashidov va Zomin tumanlarida aks etirilgan, eng kam ko'rsatkich esa Do'stlik, Baxmal, Mirzacho'l va Paxtakor tumanlariga to'g'ri keladi.





**Jizzax viloyati bo‘yicha texnikumlarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar va ularning yoshi
bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi (2020/2021-o‘quv yili boshiga)**

	Jami o‘quvchilar soni	16 yosh	17 yosh	18 yosh	19 yosh va undan katta
Jizzax sh	1338		113	247	978
Tumanlar:					
Baxmal	267				267
G‘allaorol	580	120	140	178	142
Sh.Rashidov	680		12	230	438
Do‘stlik	540				540
Zomin	1284			404	880
Mirzacho‘l	330			89	241
Paxtakor	360			12	348

2020/2021-o‘quv yili boshida texnikumlarida 5379 nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o‘quvchilarning yuqoriligi Jizzax shahrida - 1338 kishi, Zomin tumanida - 1284 kishi, Sh.Rashidov tumanida – 680 kishi, Gallaorol tumanida – 580 kishi va Do‘stlik tumanida - 540 kishiga to‘g‘ri kelgan.

Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

72-221-51-36

72-222-81-36